ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 3

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Ashirboyev S., Aymag‘ambet J., Sayfullayev B.
Muhammad Karimxojaning “Turkcha qoida” asarida fe’l formalarining izohlanishi.....6

Kuniyuki Noto
Boshlang‘ich darajadagi grammatik qoliplarda yaponcha “*iyi”* va o‘zbekcha “*yaxshi”*ning qo‘llanilishi.....18

Ma’rufjon Dustmurodov
Qarï Čor Tigin bitigidagi *yoγï: t(a)bγ(a)č q(a)n yoγl(a)dï* satri xususida 30

Bobir Ashurov
Sud-ekspertiza lingvistikasida uslubiyat va uslublar.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova
O‘zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi.....69

Adabiyotshunoslik

Alimuhtar Muhtarov
Nizami Gencevî ve onun “Mahzanü’l-esrâr” Mesnevisinin İncelenmesi, Konusu ve İdeasi.....81

Shoiraxon Xo‘jayeva
Turkiy adiblar ijodida “dunyo” konsepti va uning ma’rifiy talqini 95

Tarix. Manbashunoslik

Ziyovutdin Ilhomov
O‘zbekistonda tarix fani: XX asr boshlarida jadidlar va ularning tarixiy-ilmiy qarashlari.....108

San'at

Элина Молдокулова
Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации 121

ISSN 2181-922X 6—17

LINGVISTIKA

LINGUISTICS

Muhammad Karimxojaning “Turkcha qoida” asarida fe’l formalarining izohlanishi

Ashirboyev S., Aymag‘ambet J., Sayfullayev B.[1]

Abstrakt

O‘zbek tilshunosligi tarixini o‘rganish keyingi davrda rivojlanib bormoqda. Bu borada dissertatsiyalar, o‘quv adabiyotlari va maqolalar yuzaga keldi, jumladan, S.Ashirboyevning “O‘zbek tili grammatik qurilishining o‘rganilish tarixidan”, A.Nurmonovning “O‘zbek tilshunosligi tarixi”, S.Normamatovning “O‘zbek tilshunosligi tarixi” kabi ishlar fikrimizni tasdiqlaydi. Bunday ishlar yana ham davom etmoqda. Mazkur maqolada XX asr boshlarida endigina paydo bo‘la boshlagan amaliy grammatika sirasiga kiruvchi Muhammad Karimxojaning “Turkcha qoida” asarining ish-harakat leksemalariga bag‘ishlangan bobi tadqiq qilinmoqda. Bu asar arab grammatikalari ta’sirida shakllangan muallifga taalluqli bo‘lib, unda o‘rta asr bilimlari asosida fikr yuritilgan. Asar o‘zbek tilshunosligi tarixi va qisman turkiy tilshunoslik uchun qo‘shimcha ma’lumot berishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tilshunosligi, fe’l, sarf, mufrad, jam, fe’l zamonlari, buyruq fe’li, shart fe’li.*

Kirish

O‘zbek tilshunosligining XX asr boshlaridagi darajasini o‘rganish uchun yetarli manbalarga ega emasmiz. Bu davrni o‘zbek

[1] *Samixon Ashirboyev* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-5202-6494
Janat Aymuhambet – filologiya fanlari doktori, professor, A.N.Gumilov nomidagi Yevroosiyo Milliy universiteti.
E-mail: a_zhanat@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-7061-3000
Baurjan Sayfullayev Nurumbet o‘g‘li – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b. Nizomiy nomidagi O‘zMPU.
E-mail: sayfullayevbaurjan@gmail.com
ORCID OD: 0009-0006-0963-7472
Iqtibos uchun: Ashirboyev, S., Aymuhambet, J., Sayfullayev, B. 2025. "Muhammad Karimxojaning “Turkcha qoida” asarida fe’l formalarining izohlanishi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3: 6 – 17.

tilshunosligining inqirozli davri deb ham qarash mumkin. Haqiqatan ham, bu davrda til ilmiga oid asarlarni uchratish qiyin, balki o'sha davrda yaratilgan qo'llanmalardagi ma'lumotlarga tayanib davr tilshunosligi to'g'risida fikrlash mumkin bo'ladi. Bu haqda oldingi maqolamizda ham yozgan edik [Ashirboyev, Aymaxambet 2024, 6 – 17]. Shulardan biri Mulla Muhammadamin ibn Muhammad Karimxojaning قایده ترکچه (Turkcha qoida) asaridir.

Bu asarni XX asr boshlarida o'zbek tilida yozilgan dastlabki grammatik asar deyish mumkin. Unda o'zbek tilining morfologiyasi, sintaksisi, orfografiyasi va punktuatsiyasiga oid ma'lumotlar bor. Bu o'rinda biz faqat fe'l shakllarining qanday izohlanganligi ustida to'xtalamiz.

Muhammadaminning mazkur asarida fe'l shakllari hozirgidek kategoriyalarga birlashtirilmagan, ya'ni har bir shakl alohida-alohida izohlanadi va arabcha terminologiyaga asoslaniladi. Muhammadamin har bir fe'l shaklini izohlashda uning birlik va ko'plikda (uni *mufrad* va *jam*); uch shaxsda (I shaxsni *mutakallim,* II shaxsni *muxotab*, III shaxsni *goyib* degan terminlar bilan yuritadi) tuslanishini ko'rsatib boradi hamda *tuslanish*ga muvofiq keladigan *sarf* terminidan foydalanadi.

Muhammadamin arab tilshunosligida qabul qilinganidek, fe'lning turli shakllarini hosil qilishda: "*Fe'llar masdar (harakat nomi)lardan olinurlar. Turkiyda masdarlarning oxirlari* مک (-mak) *yoki* ماق (-moq) *bo'lur*" (11-b.), degan fikrga asoslanmoqchi bo'ladi, chunki arab tilida fe'lning o'nta tusi(poroda)si harakat nomidan hosil qilinadi (2), lekin amalda bu fikrda izchil emas, u yigirma uchta fe'l shaklini izohlashda fe'lning buyruq va boshqa shakllaridan negiz sifatida foydalanadi. Muhammadamin quyidagi fe'l shakllarini izohlaydi: 1.شهودی ماضی (moziyi shuhudi. 2. نقلي ماضي (moziyi nag'li). 3. ا مر حاضر (amri hozir). 4. غایب مر ا (amri g'oyib). 5. حاضر نهي (nahyi hozir). 6. غایب نهي (nahyi goyib). 7. مضارع فعل معلوم (ma'lumi fe'li muzore). 8. مضارع فعل مجهول (majhuli fe'li muzore). 9. مضارع حال (hole muzore), 10. استقبال(istiqbol). 11. وجوبي (vujubi). 12. فاعل اسم (ismi foil). 13. مفعل اسم (ismi maf'ul), 14. شرط فعل (fe'li shart). 15. بعید ماضی (moziyi ba'id). 16. نفي فعل معلوم (ma'lumi fe'li nafi) 17. نفي فعل مجهول (majhuli fe'li nafi). 18. جهد فعل معلوم(ma'lumi fe'li jahd). 19. فعلجهد مجهول (majhuli fe'li jahd). 20.ماضي معلوم (ma'lumi moziyi). 21. ماضي مجهول (majhuli moziyi). 22. ماضي حال (hole moziyi). 23. مصدر حال (hole masdar). Ulardan quyidagi fe'l fshakllarini tahlil qilishni ma'qul ko'ramiz.

Fe’lning funksional shakllari

Harakat nomini ikki termin bilan yuritadi. Birinchi termin *masdar* bo‘lib, uni faqat ماق (-moq), مک (-mak) affiksli harakat nomi uchun qo‘llagan. Ikkinchisini *hole masdar* deb ataydi va unda ش (-sh/ish) affiksli harakat nomi ko‘zda tutilgan. Buning hosil qilinishi haqida shunday deydi: "*Amri hozir (II shaxs buyruq)ning oxiriga* ش *-shin* (*sh*) *harfi qo‘shilsa, hole masdar hosil bo‘lur* (14-b). Ko‘rinib turibdiki, qoida bu shaklning hosil qilinishiga qaratilgan.

Ravishdoshlarning faqat o‘tgan zamon turinigina tilga oladi, lekin uni *-mish* affiksi bilan hosil qilinadigan sifatdoshdan farq qilmaydi va ikkalasini ham *moziyi nag‘li*[1] deb yuritadi. Uning o‘tgan zamon ravishdoshi va sifatdoshini birga izohlashida ma’lum darajada asos bor, chunki fors tilshunosligida sifatdosh va ravishdosh shakliy jihatdan farq qilinmaydi [Халилов 1965, 101]. Shu sababli *moziyi nag‘li* termini bu o‘rinda ham o‘tgan zamon ravishdoshini, ham o‘tgan zamon sifatdoshini bildirish uchun qo‘llangan. Uning hosil qilinishi haqida shunday deydi: "*Masdardagi “-mak”ning o‘rnig‘a “-mish” yoki “-b” kelsa, moziyi nag‘li hosil bo‘lur: o‘qumish, o‘qub* (14-b). Bu shaklni izohlashda esa faqat *-(i)b* affiksi bilan yasalgan ravishdosh haqida gap boradi. Muhammadamin o‘tgan zamon ravishdoshini tuslanadi deb ham ko‘rsatadi. Biroq uning tuslanish haqidagi fikri izoh talab qiladi, chunki bu fe’l shaklining tuslanishi uch shaxsda bo‘ladi degan fikrni aytadi va uni shu tarzda tuslab ko‘rsatadi:

Birlik	Ko‘plik
man o‘qub	*biz o‘qub*
san o‘qub	*siz o‘qub*
ul o‘qub	*ular o‘qub* (14-b).

Ko‘rinadiki, u tizimlashtirgan tuslanishda uch shaxsni, Muhammadamin aytganidek, ravishdosh shaklining tuslanishi emas, balki undan oldin keltirilgan kishilik olmoshlari ko‘rsatib turibdi. Bu esa, o‘z navbatida, tuslanadi degan ma’noni bildirmasligi ma’lum. Muhammadamin *o‘qub* ravishdoshining uch zamonini ko‘rsatishga harakat qiladi. Bunda u faqat *o‘qub* ravishdoshi, ya’ni fe’lning bir funksional shaklini izohlashni ko‘zda tutsa ham, uning zamonga munosabatini ko‘rsatishda *o‘qub ket* sof fe’lining analitik shakli haqida fikr yuritganini sezmay qoladi. Bunda zamon ma’nosini ko‘rsatish uchun ko‘makchi fe’ldangina foydalanishi fe’l zamonlarini ifodalashda faqat ko‘makchi fe’lgina asosiy rol o‘ynaydi degan xulosaga olib keladi. Avvalo shuni ham e’tiborga olish lozimki, bu

[1] Fors tilida grafikadagi ***q*** undoshi ***g‘*** talaffuz qilinadi.

o‘rinda gap umuman fe'l zamoni haqida emas, balki o‘tgan zamon ravishdoshining yana zamon bildirishi haqida bormoqda. Shunday bo‘lgach, birinchidan, *ravishdosh + ko‘makchi fe'l* haqida fikr yuritishi mantiqan to‘g‘ri emas, ikkinchidan, fe'l zamonlari fe'lning funksional shakllari tuslanishi bilan ifodalansa ham [Усмонов 1964, 181], barcha zamon shakllarini o‘tgan zamon ravishdoshining tuslanishidan hosil qilib bo‘lmaydi, chunki har bir zamon uchun fe'lning maxsus funksional shakllari mavjuddir. Bunda *o‘tgan zamon ravishdoshi + ko'makchi fe'l*dan iborat analitik shaklning zamon munosabatini *ket* ko‘makchi fe'lining funksional (ya'ni sof fe'l, ravishdosh) shakllariga murojaat qiladi, ya'ni u aniq o‘tgan zamonni sof fe'lning (*o‘qub ketdim*) tuslangan shaklidan, hozirgi zamonni esa hozirgi zamon ravishdoshining tuslangan shaklidan (*o‘qub ketaman*) va kelasi zamon fe'lini kelasi zamon sifatdoshining tuslangan shaklidan (*o‘qub ketarman*) hosil qiladi. Masalaga ikkinchi tomondan qaraganimizda, Muhammadaminning *o‘qub* ravishdoshining tuslanishi deganda ham ma'lum asos bor. Bu ham bo‘lsa, analitik shaklda (yetakchi + ko‘makchi) yetakchi fe'l (ravishdosh shakli) asosiy leksik ma'noni ifodalashidir.

Muhammadamin يور (*-yur*) affiksi bilan hosil qilingan sifatdoshni ham keltiradi. Uni *hole muzore* deb ataydi (17-b.) Bu affiksning qadimgi turkiy tilda sifatdosh yasovchi ekanligi ma'lum [Фозилов 1966, 16]. Muhammadamin bu affiksning so‘z negizi qanday tovush bilan tugashidan qat'iy nazar *-yur* variantida qo‘shilishini aytadi: *o‘quyur, ketyur, yozyur* va h.k.

Hozirgi zamon sifatdoshini *ismi foil* deb yuritadi va uning hosil qilinishini shunday ta'riflaydi: *"Amri hozirning oxiriga* وچي (-vchi*) kalimasi (affiksi ma'nosida) qo‘shulsa, ismi foil hosil bo‘lur*" (19-b.), lekin uning misollariga ko‘ra gap *-g‘uchi* affiksi ustida ketmoqda. Bu shaklning tuslanish paradigmasida qatnashishini ham ko‘rsatadi: *o‘qug‘uchiman, o‘qug‘uchisan, o‘qug‘uchi, o‘qug‘uchimiz, o‘qug‘uchisiz, o‘qug‘uchilar.*

Ismi foil termini sifatdosh ma'nosida XI–XIV asr yodnomasi bo‘lgan "Attuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya" asarida uchraydi [Аттуҳфатуз закияту филлуғатит туркия 1966, 113 – 114]. Mirza Mahdiyxon bu terminni o‘z ma'nosida, ya'ni harakat qiluvchi shaxs nomi (имя действующего лица) ma'nosida qo‘llab, uni hosil qilishda چي (-chi), ول(*-vul*) ot yasovchi affikslarini ham keltiradi (9) va shu bilan fe'l doirasidan chiqib ketadi.

Bu sifatdoshning majhul nisbatini *ismi maf'ul* deb yuritadi. Uning ham tuslanishini ko‘rsatadi: *o‘rilguchiman, o‘rilguchisan,*

o‘rilguchi, o‘rilguchimiz, o‘rilguchisiz, o‘rilguchilar (19-b.). Bu so‘zlarning harakat nomi shakli *o‘rmoq* bo‘lib, o‘zbek tili xususiyatini aks ettiradi, lekin bu fe’l ko‘rsatilgan shakllarda o‘zbek tilida funksional emas, ya’ni amalda qo‘llanmaydi. Shuningdek, bu o‘rinda Muhammadamin mazkur fe’lning majhul nisbati kishilarga nisbatan qo‘llanmasligini e’tiborga olmagan.

Aniqlik mayli fe’llari

O‘tgan zamon fe’llari. Yaqin o‘tgan zamon fe’li *moziyi shuhudi* deb ataladi (13-b.). Bu shakl muallifning ko‘rsatishicha, harakat nomidagi *-moq/mak* qo‘shimchasini olib tashlab, o‘rniga دی (*-di*) affiksini qo‘yish bilan hosil qilinadi. Uning tuslanishi:

Birlik	Ko‘plik
1- shaxs: *ketdim*	*ketdimiz*
2- shaxs: *ketding*	*ketdingiz*
3 –shaxs*: ketdi*	*ketdilar*

Ko‘rinadiki, tuslanish tizimi hozirgi tuslanishga mos keladi, lekin birinchi shaxs ko‘pligi uchun Toshkent shevasiga xos affiks olingan [Решетов 1959, 25]. Bundan muallifning toshkentlik bo‘lganligini anglash qiyin emas. Faqat III shaxs ko‘pligida *-lar* affiksining qo‘llanishi o‘zbek tili uchun xos emasligini ta’kidlaymiz. Bu shakl Mirza Mahdiyxonda ham uchraydi. Uni *fe’li moziyi* termini bilan ataydi, lekin u yaqin o‘tgan zamon fe’li shaklidan tashqari پ (-p), بان (-bon) affiksli ravishdosh va مش (-mish), غان(-g‘an), كن (-gan//kan), قان (-qan) affiksli sifatdoshlarni hamda میدور (-maydur) affiksi bilan yasalgan so‘z shakllarini ham shu fe’lga kiritadi [Умаров 1957, 6]. Demak, Mahdiyxonda aniq o‘tgan zamon fe’lini o‘tgan zamon ravishdoshi, o‘tgan zamon sifatdoshi asosida *fe’li moziyi* termini ostida izohlanadi. Muhammadamin esa uni ikkiga bo‘lib tasvirlaydi, ya’ni yaqin o‘tgan zamon fe’lini (*ketdi*) *moziyi shuhudi;* o‘tgan zamon sifatdoshi va ravishdoshini *moziyi nag‘li* terminlari bilan ataydi va alohida izohlaydi.

-di affiksli fe’lning bo‘lishsiz shaklini *ma’lumi fe’li jahd* deb yuritadi. Bu shaklning hosil qilinishi haqida: “*Amri hozir* (II shaxs buyruq)*ning oxirig‘*a مدی *(-madi) kalimasi qo‘shulsa, ma’lumi jahd hosil bo‘lur*” (22-b.), - deydi va unga *o‘qumadim, o‘qumading, o‘qumadi, o‘qumaduk, o‘qumadingiz, o‘qumadilar* misolini keltiradi. Ko‘rinadiki, Muhammadamin bo‘lishsizlik va yaqin o‘tgan zamon fe’lini hosil kiluvchi affikslarning mustaqil ekanligini anglab yetmagan, balki ularni yaxlit affiks sifatida talqin qilgan. Bu fe’lning majhul nisbatini ham izohlaydi va uni *majhuli fe’li jahd* degan termin

bilan ataydi. Uning hosil qilinishida *amri hozir* (buyruq fe'li) va *-madi* affiksi o'rtasida lom harfi keltiriladi, deb tushuntiradi hamda unga *o'qulmadi, yozilmadi* (22-b.) misollarini beriladi. Haqiqatan ham, o'zbek tilida *-l* affiksi majhul nisbatni hosil qilishi barchaga ayon.

Uzoq o'tgan zamon fe'lini izohlashi o'ziga xosdir. Bu fe'lning bo'lishli formasi hamda aniq nisbatini *ma'lumi moziyi* deb yuritadi va uning yasalishi haqida bunday deydi: "*Amri hozir*(buyruq formasi)*ning oxirig'a كان (-gan) kalimasi* (affiksi) *qo'shilsa, ma'lumi moziyi hosil bo'lur*" *(*22-b.) Bu o'rinda uzoq o'tgan zamon fe'lining III shaxs birligi ko'zda tutilgan. Bu ta'rifdan keyin *o'qi-* fe'lining *o'qug'anman, o'qug'ansan, o'qug'an, o'qug'anmiz, o'qug'ansiz, o'qug'anlar* tarzida tuslanishini ko'rsatadi. Majhul nisbatdagi uzoq o'tgan zamon fe'lining yasalishi haqida: "*Amri hozir ila -gan kalimasi o'rtasiga lom harfi* (affiksi) *kelsa, majhuli moziyi hosil bo'lur"*, - deydi va uning ham tuslanishini beradi: *etilganman, etilgansan, etilgan, etilganmiz, etilgansiz, etilgan.* Demak, faktik material sifatida to'liqsiz fe'l tanlangan. Aslida u yetakchi, ya'ni leksik ma'noni tashuvchi fe'l bilan birga berilishi yoki mustaqil fe'lning o'zi keltirilishi lozim edi.

O'tgan zamon davom fe'lini *hole moziyi* deb yuritadi va uning yasalishini quyidagicha tasvirlaydi: "*Hole muzore* (*-r/ur* affiksli sifatdosh)*ning oxirig'a -di kalimasi qo'shulsa, hole moziyi bo'lur*" (23-b.). Garchand, bu o'rinda *-di* formatini "so'z" deb atayotgan bo'lsa ham, uning *edi* to'liqsiz fe'lidan qisqarganligiga ishora qilmaydi. Aftidan, uning to'liqsiz fe'l ekanligini tushunmagan. Bu fe'lning ham: *o'qurdim, o'qurding, o'qurdi, o'qurdimiz, o'qurdingiz, o'qurdilar* tipidagi sintezlashgan tuslanishini ko'rsatadi.

O'tgan zamon maqsad fe'lini istiqbol, ya'ni kelasi zamon fe'llari ichida izohlab: "*Istiqbolga* ***edi*** *kalimasi qo'shulsa, o'tgan zamon hosil bulur* (18-b.)", - deydi hamda bu formaning *-moqchi* affiksi va *edi* to'liqsiz fe'lidan tarkib topishini ko'rsatadi. Bu fe'lning *o'qumoqchi edim, o'qumoqchi eding, o'qumoqchi edi, o'qumoqchi edimiz, o'qumoqchi edingiz, o'qumoqchi edilar* tipidagi tuslanishini beradi.

O'tgan zamon hikoya fe'lini *moziyi ba'id* termini bilan yuritadi. Bu shakl *-b/ib* affisli ravishdoshning *edi* to'liqsiz fe'li bilan birga qo'llanishidan hosil qilingan. Demak, bu fe'lning faqat analitik shaklinigina e'tirof qiladi. Uning tuslanishi esa hech qanday e'tiroz tug'dirmaydi. Muhammadamin *ketib edi* tipidagi fe'lning faqat o'tgan zamon ma'nosida qo'llanishini ta'kidlab: "*Moziyi ba'idning hozirgi ham kelar zamoni uchun sarfi bo'lmas*", - deydi. Aslida bunday

fikrga hojat yo‘q edi.

Hozirgi zamon fe’llari

Muhammadamin uning faqat hozirgi kelasi zamon turi haqidagina ma’lumot beradi. Shunda ham bu shaklning bo‘lishli shakli tilga olinmaydi. Hozirgi kelasi zamon fe’lining aniqlik nisbatidagi bo‘lishsiz shaklini *ma’lumi fe’li nafi* deb yuritadi. Uningcha, bu shakl II shaxs buyruq fe’liga *-miydi* (o‘zbek adabiy tilidagi -ma-y-di formanti) affiksini ko‘shish bilan hosil bo‘ladi. Mazkur fe’lning quyidagicha tuslanishini ko‘rsatadi: *urmiyman, urmiysan, urmiydi, urmiymiz, urmiysiz, urmiydilar*. Shuningdek, *ma’lumi fe’li nafi*ning o‘tgan zamoni bo‘lmasligini uqtiradi. Ayni zamonda uning majhul nisbatdagi tuslanishini ham beradi: *urilmayman, urilmiysan, urilmiydi, urilmiymiz, urilmaysiz, urilmiydilar*. Yuqoridagi tuslanishlar hozirgi kelasi zamon fe’li uchun Toshkent shevasiga xos shaklni tanlaganini ko‘rsatadi [Ўзбек шевалари морфологияси 1984, 178]. Shuni ham aytish kerakki, Muhammadamin shu tarzdagi tuslanishni fe’lning hozirgi zamon tuslanishi deb tavsiya etadi.

Kelasi zamon fe’llari. Kelasi zamon gumon fe’liga Muhamadaminning *ma’lumi muzore* deb yuritgan fe’li muvofiq keladi. Bu fe’lning hosil qilinishi haqida shunday deydi: “*Amri hozirni oxirida vov harfi bo‘lub, -r harfi qo‘shulsa, ma’lumi muzora hosil bo‘lur: o‘qur, to‘qur, cho‘qur. Agarda amri hozirning oxirida "t" harfi bo‘lsa, hamza, ya’ni alif ila -r xarfi qo‘shilganda, ma’lumi fe’li muzora hosil bo‘lur: ketar, bitar*”(17-b.). Bu o‘rinda hamza belgisining alif (*a* unlisi) vazifasini bajarishi to‘g‘risida gap ketmoqda, ya’ni *ketar* so‘zidagi **a** unlisi o‘rnida hamzadan ham foydalanishgan. Aslida bunday yo‘l tutish turkiy so‘zlarga nisbatan noto‘g‘ri edi. Muhammadaminning bu fikrlari shu davr uchungina to‘g‘ridir, chunki birinchi holatdagi so‘zlarda (*o‘qur*) lab garmoniyasiga moyillik tufayli oldingi va keyingi bo‘g‘inlarda lab unlilari saqlangandir. Shunisi ahamiyatliki, u sifatdosh yasovchi affiksning varianti mavjudligini e’tirof qiladi. Ma’lumi fe’li muzoreni quyidagicha ko‘rsatadi: *o‘qurman, o‘qursan, o‘qur, o‘qurmiz, o‘qirsiz, o‘qurlar*. Bu fe’lning majhul nisbatida / bu shaklni *majhuli fe’li muzore* deb yuritadi. Shuningdek, bu shaklda sifatdoshning *-ur* affiksli varianti qatnashishini ham ko‘rsatadi, uning ham: *etilurman, etilursan, etilur, etilurmiz, etilursiz, etilurlar* kabi tuslanishini beradiki, bunda to‘liqsiz fe’lning tanlanishi o‘rinli bo‘lmagan.

Kelasi zamon maqsad fe’li *istiqbol* deb ataladi. Uning hosil

qilinishi haqida esa shunday deydi: *"Masdarlarning oxiriga -chi kalimasi qo'shilsa, istiqbol hosil bo'lur"* (18-b.) Demak, kelasi zamon maqsad fe'lini hosil qilishda *-moqchi* qo'shma affiksi emas, balki fe'lning infinitiv shakliga *-chi* affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi deb tushunganligi ko'rinib turibdi. Bu fe'l shaklini ochiq izohlamagan bo'lsa ham, hozirgi zamon ma'nosini anglatadi, degan fikrda ekanligini fahmlay olamiz, chunki u: "*Istiqbolning kelar zamoni uchun vaqt tayin qilinur*" (18-b.) - deydi va *erta* (*ertaga* ma'nosida) *o'qimoqchiman, erta o'qimoqchisan, erta o'qimoqchi* tipidagi misollarni keltiradi. Uningcha, kelasi zamon ma'nosi kontekstdan bilinadi. Ayni zamonda *-moqchi* affiksi bilan *edi* to'liqsiz fe'lining qo'llanishi o'tgan zamonni bildiradi degan fikri bilan yuqorida tanishgan edik. Bundan mazkur forma hozirgi zamonni bildiradi degan xulosa chiqadi. Uningcha, istiqbolning kelasi zamonini buyruq fe'lining II shaxs formasi ham ifoda qiladi. Bu fikri o'rinli, chunki buyruq fe'lining nafaqat II shaxsi, balki barcha shakllarida kelasi zamon ma'nosi aks etishi barchaga ma'lum.

Buyruq mayli

Muhammadamin buyruq mayli paradigmasida qatnashadigan har bir shaxs shaklini alohida-alohida izohlaydi va maxsus terminlar bilan yuritadi. II shaxs buyruq mayli formasini *amri hozir* deb ataydi . Uning harakat nomidagi *-moq /-mak* affiksini olib tashlash bilan hosil qilinishi aytiladi. Bu fe'lning zamon ko'rsatishi hakida shunday deydi: "*Amri hozir hozirgi zamon ila kelar zamoni iste'mol qilinur: erta kel, dushanba kel* (15-b.).

Buyruq mayli fe'llarining zamonga munosabati alohida izoh talab qilmaydi, chunki bu fe'l har qanday kontekstda ham hozirgi zamonni emas, balki kelasi zamonni ko'rsata beradi.

II shaxs buyruq fe'lining bo'lishsiz shaklini *nahyi hozir* deb ataydi. Biroq uning birlik shakli bilan birga ko'pligini ham ko'rsatadi. Unga *o'lturmanglar, ketmanglar* kabi misollarni keltiradi. Demak, bu fe'l uchun og'zaki nutqqa xos bo'lgan fe'l shakli tanlangan. III shaxs buyruq fe'lini *amri goyib* deb yuritgan. Uning hosil qilinishi haqida: **"***Amri hozirning oxiriga -sun kalimasi ko'shulsa, amri goyib hosil bo'lur* (15-b.) - deydi va uning birlik va ko'plik shakllarini keltiradi: *kelsun, ketsun, etsun, kelsunlar, ketsunlar, etsunlar.* Shu shaxsning bo'lishsizi esa *nahyi goyib* degan termin bilan atalgan.

Shart mayli

Shart mayli fe'llarini *fe'li shart* deb yuritadi. Uning hosil

qilinishi haqida: “*Amri hozirning oxiriga -sa kalimasi qo‘shulsa fe’li shart hosil bulur*” (20-b.) - deydi. Shart fe’lining ikki zamonda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Kelasi zamon shart-istak fe’lini hozirgi zamon (*borsam, borsang, borsa, borsamiz, borsangiz, borsalar*); o‘tgan-kelasi zamon shart fe’lini o‘tgan zamon shart fe’li sifatida talqin qiladi (*borsam edi, borsang edi, borsa edi, borsamiz edi, borsangiz edi, borsalar edi)*. Keyingi shaklni Muhammadamin kabi o‘tgan zamon shart fe’li sifatida qarash hozirgi tilshunoslikka oid asarlarimizda ham qayd qilinadi.

Muhammadaminning asarida *vujubi* (18-b.) termini bilan ataladigan fe’l shakli uchraydi. Termin mohiyati bilan bu shakl kelasi zamon lozimlik fe’lini bildirishi kerak. Muallifning ko‘rsatishicha, bu fe’l egalik affiksini olgan harakat nomi (-*magi/mag‘i* affiksi) va *kerak* modal so‘zidan iborat analitik shaklni bildiradi. Bunda -*magi/mag‘i* affiksini olgan qism shaxs-son affikslarini qabul qiladi. Lekin bu shaklning hosil qilinishi haqidagi fikrida izchil emas. Bu shaklning zamonga munosabatini ko‘rsatishida *o‘qumag‘i kerak* tipidagi shaklni hozirgi zamon; *o‘qumag‘i kerak edi* kabi shaklni o‘tgan zamon fe’li sifatida tavsiya etish bilan birga, kelasi zamon shakli uchun hech qanday eslatmasiz *shart fe’li + shaxs-son affiksi + kerak* modal so‘zidan tashkil topgan shaklni keltiradi. Ko‘rinadiki, bu bilan o‘zining dastlabki tamoyiliga amal qilmaydi, chunki u vujubini *II shaxs buyruq fe’li -mag‘i /magi affiksi + kerak* modal so‘zidan tashkil topadi degan edi, ikkinchidan, bu shaklning zamonlarini aniq belgilay olmadi, chunki *o‘qumagi kerak* tipidagi fe’l shakli hozirgi zamonni emas, balki kelasi zamonni, *o‘qumag‘i kerak edi* kabi fe’l shakli faqat o‘tgan zamonni emas, balki o‘tgan-kelasi zamon ma’nosini bildiradi.

Ma’lumki, bu shakl hozirgi o‘zbek tilshunosligida kam o‘rganilgan. Yuqoridagi shakllardan *o‘qimag‘i kerak* tipidagi fe’l formasini A.Hojiyev va J.Jo‘rayevalar [Сулаймонов, Ҳожиев, Жўраева 1962, 156.] kelasi zamon ma’nosining sintaktik yo‘l bilan ifodalanishi deb qaraydi, xolos.

Xulosa

Muhammadaminning bu asari asosan, Muhammadrasul Rasuliyning: “Rahbari forsiy” [Расулий, 1911] va arab tilshunosligi [Ковалев, Шарбатов 1969, 216] unsurlarini o‘ziga singdirgan tatar grammatikachilarining asarlariga, ayniqsa, tatar va arab tilining grammatikalarini yozgan Ahmad Hodi Maqsudiyning. “Turkiy sarfi [Мақсудий, 1910] asariga ergashish seziladi. Shuningdek, bu asardagi *o‘tgan, hozirgi, kelar /kelasi zamon* degan terminlar o‘zbek

tilida birinchi marta e'tirof qilinganining guvohi bo'lamiz. To'g'ri, asar jiddiy tahrirga ham muhtoj, ayniqsa, qaratqich va tushum kelishigi shakllari almashinib qo'llana bergan. Bu asarni XX asr boshlaridagi amaliy grammatikachilikning namunasi sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar

Ashirboyev S., Aymaxambet J. 2024. "Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 6 – 17. Toshkent.

Ковалев, А.Л., Шарбатов, Г.Ш. 1969. *Учебник арабского языка.* Москва: Просвещение.

Аттуҳфатуз закияту филлуғатит туркия. 1966. С. Муталлибов нашрга тайёрлаган. Тошкент: Фан.

Аҳмад Ҳоди Мақсудий. 1910. *Туркий сарфи.* Қозон.

Ҳозирги замон ўзбек тили. 1957. Тошкент: Ўқитувчи.

Ҳожиев, А. 1966. *Ўзбек тилида кўмакчи феъллар.* Тошкент: Фан.

Муҳаммадрасул Расулий. 1911. *Раҳбари форсий.* Тошкент.

Кононов, А. Н. 1960. *Грамматика современного узбекского литературного языка.* М. – Л.: Наука.

Ковалев, А. Л., Шарбатов, Г.Ш. 1969. *Учебник арабского языка.* Москва: Просвещение.

Усмонов, С. 1964. "Ўзбек тилида сўзларнинг грамматик формаси. Функционал грамматик форма". *Низомий номидаги ТДПИ илмий асарлари.* 4-ж, 2-китоб. Тошкент: ТДПИ.

Умаров, З. А. 1957. *Грамматика староузбекского языка "Мабани-ул дугат" Мирзы Мехдихана.* Автореф. … дис. канд. филол. наук. Ташкент.

Халилов, Л. 1965. *Форс тили.* Тошкент: Ўқитувчи.

Ўзбек шевалари морфологияси. 1984. Тошкент: Фан.

Фозилов, Э. 1966. *Ўзбек тилининг тарихий морфологияси.* Тошкент: Фан.

Решетов, В. 1959. *Узбекский язык.* Ташкент: Ўқитувчи.

Сулаймонов, А.Ҳ., Ҳожиев, А.Ҳ., Жўраева, Ж.М. 1962. *Феъл замонлари.* Тошкент: Фан.

The explanation of verb forms in Muhammad Karimhodja's "Turkish Rule"

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.[1]

Abstract

The study of the history of Uzbek linguistics have been developing in recent years. Dissertations, educational literature and articles have appeared on this topic, including S. Ashirbaev's "From the History of the Study of the Grammatical Structure of the Uzbek Language", A. Nurmonov's "History of Uzbek Linguistics", S. Normatov's "History of Uzbek Linguistics". Research in this field continues to expand the present article examines the chapter devoted to the action (verbal) lexemes in "Turkish Rule" by Muhammad Karimkhoja, a work belonging to the category of practical grammar that began to emerge in the early twentieth century. This work is attributed to an author whose scholarship was shaped under the influence of Arabic grammatical traditions, with reasoning grounded in medieval knowledge. The significance of the work lies in its contribution of additional material to the history of Uzbek linguistics and, in part, to Turkic linguistics.

Key words: *Uzbek linguistics, verb, participle, plural, verb tenses, imperative verb, conditional verb.*

References

Ashirboyev S., Aymaxambet J. 2024. "Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 6 – 17. Toshkent.

Kovalev, A.L., Sharbatov, G.Sh. 1969. *Uchebnik arabskogo yazika.* Moskva: Prosveshenie.

[1] *Samixon Ashirboyev* – Doctor of Philological Sciences, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.
E-posta: samixon.ashirboyev@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-5202-6494
Janat Aymuhambet – Doctor of Philological Sciences, Professor, A.N. Gumilyov Eurasian National University.
E-mail: a_zhanat@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-7061-3000
Baurjan Sayfullayev – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Assistant Professor, etc. Nizami State University of Uzbekistan.
E-mail: sayfullayevbaurjan@gmail.com
ORCID OD: 0009-0006-0963-7472
For citation: Ashirboyev, S., Aymuhambet, J., Sayfullayev., B. 2025. "The explanation of verb forms in Muhammad Karimhodja's "Turkish Rule". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 6 – 17.

Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya. 1966. S.Mutallibov nashrga tayyorlagan. Toshkent: Fan.

Ahmad Hodi Maqsudiy. 1910. *Turkiy sarfi.* Qozon.

Hozirgi zamon o'zbek tili. 1957. Toshkent: O'qituvchi.

Hojiev, A. 1966. *O'zbek tilida ko'makchi fe'llar.* Toshkent: Fan.

Muhammadrasul Rasuliy. 1911. *Rahbari forsiy.* Toshkent.

Kononov, A.N. 1960. *Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazыka.* M. – L.: Nauka.

Kovalev, A. L., Sharbatov, G.Sh. 1969. *Uchebnik arabskogo yazika.* Moskva: Prosveщenie.

Usmonov, S. 1964. "O'zbek tilida so'zlarning grammatik formasi. Funksional grammatik forma". *Nizomiy nomidagi TDPI ilmiy asarlari.* 4-j, 2-kitob. Toshkent: TDPI.

Umarov, Z. A. 1957. *Grammatika starouzbekskogo yazыka "Mabani-ul dugat" Mirzi Mexdixana.* Avtoref. … dis. kand. filol. nauk. Tashkent.

Xalilov, L. 1965. *Fors tili.* Toshkent: O'qituvchi.

O'zbek shevalari morfologiyasi. 1984. Toshkent: Fan.

Fozilov, E. 1966. *O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi.* Toshkent: Fan.

Reshetov, V. 1959. *Uzbekskiy yazik.* Tashkent: O'qituvchi.

Sulaymonov, A. H., Hojiev, A.H., Jo'raeva, J.M. 1962. *Fe'l zamonlari.* Toshkent: Fan.